

**BUGUNGI KUN TA'LIM-TARBIYASIDA XALQ PEDAGOGIKASINING
O'RNI VA AHAMIYATI
(XALQ OG'ZAKI IJODI MISOLIDA)**

Adinamatova Dono Ilxom qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: *Maqolada globallashuv davrida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda xalq pedagogikasining ahamiyati, xalq og'zaki ijodining o'rne, xalq og'zaki ijodi namunalari va ularning o'quvchilarni tarbiyalashga yordam beradigan tomonlari, tez aytish, ertak, topishmoqlarning tarbiyaga oid afzalliklari, yo'qolib borayotgan xalq og'zaki ijodining sabablari va ularni rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan ishlar to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Xalq pedagogikasi va uning manbalari, ta'lim-tarbiya, xalq og'zaki ijodi, laparlar, ertaklar, afsona-rivoyatlar, tez aytishlar, topishmoqlar, globallashuv, raqamli texnologiyalar, madaniy globalizatsiya, ta'lim tizimi.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga qo'shadigan hissasi beqiyos. Chunki har bir barkamol avlod va albatta, pedagog kadrlar aynan shu ma'naviy meros bo'lmish xalq pedagogikasini o'zida mujassam etgan bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari zarur. Xalq pedagogikasi Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek xalqi va uning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti yillar davomida rivojlandi. Xalqimiz yaratgan ana shunday fikr, g'oyalar, ta'lim-tarbiyaga oid boy meros ko'plab avlodlarni umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyaladi. Xalq pedagogikasi shunday nodir sohaki, hozirgacha u o'zining qiymatini butunlay yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, uni yanada targ'ib etish maqsadida ushbu soha alohida fan sifatida o'qitilmoqda. Buning sababi shundaki, hozirda sekin-asta kamayib borayotgan xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar, an'analar, xalq raqs san'ati, hunarmandchiligi kabi xalq pedagogikasining manbalarini kelajak avlodlarga ham o'rgatib, shu orqali ta'lim-tarbiya berish va xalqimizning ma'naviy merosini singdirishdan iboratdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va qadriyatlarimizni avaylash – bu mustaqilligimizning asosi, ertangi kunimizning poydevoridir[3].

ASOSIY QISM

Xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyadagi o'rne juda katta. O'zbek xalq pedagogikasi o'z tarbiya borasidagi tajribalarini quyidagi manbalarda aks ettiradi:

- Etnopedagogika
- Xalq og'zaki ijodi
- Milliy urf-odatlar
- Xalq raqs san'ati
- Diniy ta'limotlar

- Tasviriy san’at
- Milliy me’morchilik
- Xalq amaliy san’ati
- Xalq hunarmandchiligi
- Xalq musiqa san’ati
- Xalq o’yinlari, o’yinchoqlari
- O’rta Osiyo va o’zbek xalqi mutafakkirlari ijodi

Xalqimiz o’z tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og’zaki ijod merosini yaratgan. U Qadim zamonlardan buyon xalq pedagogikasining tarbiya vositalaridan biri bo’lib kelgan. O. Madayevning ta’kidlashicha, xalq og’zaki ijodining barcha janrlari muhim ahamiyatga ega. Jumladan, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, latifalar, naqlar, aytishuvlar, tez aytishlar, maqollar, topishmoqlar, matallar, xilma-xil qo’shig’-u laparlaning tarbiyaviy imkoniyatlari cheksiz va tunganmas. Chunki shaxsni shakllantirishning barcha tarkibiy qismlari aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, nafosat tarbiyasiga oid ajoyib ma’lumotlar o’zbek xalq og’zaki ijodining janrlarida o’z aksini topgan[4]. Xalq og’zaki ijodi namunalari asrlar osha sayqallanib bizgacha yetib keldi. Uning o’lmas namunalari xalqimizning ma’lum davrdagi turmush tarzi, urf-odatlar, mehnat faoliyati, xalqimiz qalbidagi g’am-tashvishlari, quvonchlarini ifodalaydi.

Xalq og’zaki ijodining namunalari:

- Pandnomalar
- Matal
- Afsona
- Alla
- Masal
- Yor-yorlar
- Topishmoq
- Ertaklar
- Qo’shiqlar
- Laparlar
- Maqol
- Rivoyat

Xalq og’zaki ijodining yuqorida sanab o’tilgan barcha janrlarida yosh avloqni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash yo’llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, oliyjanoblik, qadr, vafo, sadoqat, yaxshilik, mehnatsevarlik, halollik, adolat, insof kabi xislatlar ulug’lanib, yomonlik, bevafoqlik, baxillik, manmanlik, andishasizlik, ochko’zlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Undan tashqari nimaga xalq og’zaki ijodi muhim ta’lim-tarbiyada degan savol tug’ilishi tabiiy. Buning sababi xalq og’zaki ijodi namunalarda odob-axloq, ta’lim-tarbiya borasida o’ta hayotiy va haqiqiylik bilan umumbashariy ahamiyatga ega. Masalan, ertakni misol qilib olsak. Ertaklar - hayot haqiqatlariga asoslangan, ibrat beruvchi og’zaki hikoya hisoblanadi. Undagi ijobiy qahramonlar yengilmas kuchga aylanib, har qanday yovuzlik, yomonlik ustidan g’alaba qozonadi. Undagi voqealar tinglovchini o’ziga rom etib real hayotdan ertak olamiga kirish

uchun xizmat qiladi. Ertaklar orqali bolalar uchun tarbiyaning deyarli hamma tarkibiy qismlari jumladan, jismoniy va aqliy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, ma'naviy axloq va estetik did kabi ko'plab pedagogik materiallarni uchratish mumkin. Bejiz emas, xalqimizda "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" - degan naql.

Xalqimizning nodir namunalari bo'lmish maqollar, matal va topishmoqlar bolaning ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maqollar she'riy va nasriy ko'rinishda bo'lib, ularda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, mardlik, adolat, do'stlik kabi chin insoniy xislatlar o'z ifodasini topgan. Topishmoqlar esa narsa yoki hodislarni bir-biri bilan taqqoslash, ularni anglash, fikr yuritishga undaydi. Insonning zehni o'tkirlashtirib, ularning fikrlashini kengaytiradi, topqirlikni shakllantiradi. Tez aytishlarning ham hissasi juda katta bola tarbiyasida. U xalq og'zaki ijodining eng qiziqarli janrlaridan bo'lib, u bolani tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, xotirani mustahkamlashga va nutqni o'stirishga xizmat qiladi.

Yana xalq og'zaki ijodi namunalaridan biri bo'lgan lirik qo'shiqlar, mavsumiy qo'shiqlar, mehnat qo'shiqlari, laparlar ham eng qadimgi va ommaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi xalq og'zaki ijodlari yoshlarda go'zallik tuyg'usini shakllantiradi, dillarga orom bag'ishlab, ko'tarinki kayfiyat ulashadi, shuningdek, vatanga sadoqat, muhabbat kabi tuyg'uni paydo qiladi. Masalan, "Sust xotin" (yomg'ir chaqirish qo'shig'i) ni olsak, zardushtiylarda yomg'ir xudosi hisoblangan. Bahorda yomg'ir yetarlicha yog'masa, xalq shu qo'shiqni aytib yurishgan.

Ko'rib turganimizdek, xalq pedagogikasining manbai sifatida xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos va yosh avlodning kamol topishida uning tarbiyaviy ta'siri juda kuchli hisoblanadi. Folklorshunos olim Turayev S. ta'kidlashicha [4]: "Xalq og'zaki ijodida hayotning , tafakkurning, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini , barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi". Xalq og'zaki ijodi bolalar hayotida alohida o'rin tutadi. Ular o'quvchilarga samarali tarbiyaviy ta'sir qilib, ma'naviy va axloqiy shakllanishlarida ko'maklashadi. Aynan, shu sababli nafaqat umumiy o'rta ta'lim muassasalari, balki ungacha bo'lgan ta'lim muassasalarida bulardan foydalanish o'quvchilarga yuksak darajada foyda bersa beradiki, lekin zarar yetkazmaydi. Hozirgi globallashuv davrda esa xalq og'zaki ijodidan ta'lim-tarbiya berish darajasi sekin-asta yo'qolib ketayotganligi ham o'zbek xalqi uchun achinarli holatlardan biri. Buning sabablarini sanab o'tadigan bo'lsak adog'iga yetolmaymiz. Quyida ularning ayrimlarini keltiraman:

-Raqamli texnologiyalar: Internet va raqamli vositalar xalq og'zaki ijodining o'rmini bosmoqda. Odamlar endi hikoyalarni, qo'shiqlarni va boshqa ijodiy asarlarni onlayn topishlari mumkin, bu esa an'anaviy usullarni kamayishiga sabab bo'lmoqda.

-Madaniy globalizatsiya: Turli madaniyatlarning bir-biriga ta'siri kuchaygan. Bu jarayon mahalliy an'analarni va xalq ijodini kamroq e'tiborga olishga olib kelmoqda.

-Yosh avlodning qiziqishi: Yoshlar orasida xalq og'zaki ijodiga nisbatan qiziqish pasaymoqda. Ular ko'proq zamonaviy san'at va madaniyatga qiziqishadi.


-Ta'lim tizimi: Ta'lim tizimlarida xalq ijodiga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Talabalarga bunday an'anaviy ijod ko'proq o'rgatilishi kerak.

Bunga chora sifatida esa hozirda oliy ta'lim muassasalarida xalq pedagogikasi alohida fan sifatida o'tilmoqda. Bundan tashqari, o'quvchilarga bu yo'nalish orqali ta'lim berish maqsadida tarbiya fanining asosiy mazmuni tarkibiga kiritilgan holda o'rganib kelinmoqda. Xalq og'zaki ijodining hozirgi kunda hayotimizdagi ahamiyatini aniqlash maqsadida talabalar o'rtasida tadqiqot so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnomada 37 nafar talaba faol qatnashib o'z fikrlarini va tanlovlarini bayon qilishdi.

1-diagramma.

Bugungi kunda xalq og'zaki ijodining qaysi turi keng foydalaniladi?

37 OTBETOB



Demak, ushbu grafikadan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda xalq og'zaki ijodining keng turlaridan maqol eng ko'p foydalaniladigan turi hisoblanib, 94,6 % ni, topishmoq esa undan keying o'rinda bo'lib, 75,7 % ni, ertak esa 73% ni ko'rsatmoqda. Shundan bilishimiz mumkinki, hozirgi kundagi adabiyotlarimizda ushbu xalq og'zaki ijodi namunalarini ko'p uchratishimiz mumkin.

Keyingi grafika bo'yicha esa xalq og'zaki ijodi namunalarini ommalashtirishda foydalaniladigan vositalardan eng yuqori ko'rsatkich sifatida kino yoki multfilm javobi 62,2 % bilan talabalar tomonidan tanlangan.

2-diagramma

Odatda bo'sh vaqtingizni nimalarga sarflaysiz?

37 OTBETOB




U

shb
u
so'r
ovn
om
a
sav
oli

talabalarni bo'sh vaqtini qanday o'tkazishini bilish maqsadida qo'yilgan bo'lib, yuqori ko'rsatkich 43,2 foiz bilan "Kitob o'qiyman" javobi belgilangan. Eng past ko'rsatkich sifatida esa "Bo'sh vaqtim deyarli bo'lmaydi" (29,7%) javobi tanlangan. Demak, talabalarining ko'p qismi bo'sh vaqtini samarali ya'ni kitob o'qishlik bilan o'tkazisharkan.

3-diagramma

Bugungi kunda xalq ogʻzaki ijodiga yoshlar orasida qiziqish pasayib ketishiga nima sabab boʻlmoqda?
37 OTBETOB



Ushbu grafikada xalq ogʻzaki ijodiga yoshlar orasida qiziqish pasayib ketishiga nima sabab boʻlayotgani koʻrsatilgan. Yuqorida ham bu masala koʻrib chiqildi. Endi esa statistika boʻyicha koʻradigan boʻlsak, yuqori koʻrsatkichni “Internet tarmoqlari” (67,6%) koʻrsatmoqda. Undan keyin esa 64,9 % bilan “Yoshlar orasida kitob oʻqishni kamligi” javobi tanlangan. Demak, xalq ogʻzaki ijodiga boʻlgan qiziqishning yoʻqolishiga bitta sabab emas, balki bir nechta vositalar sabab boʻlar ekan va hamma uchun sabab har xil koʻrsatkichga ega ekan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, bizning ajdodlarimiz ham xalq ogʻzaki ijodi turlaridan eshitib katta boʻlgan, jahonga mashhur bobolarimiz ham ona allasi-yu, afsona, rivoyatlar taʼsirida ulgʻayganlar. Biz oʻqigan davrlarda ham darsliklarimizda xalq ogʻzaki ijodi mavzusi katta boʻlim sifatida oʻtilardi va biz ham unga nisbatan qiziqish bilan oʻqib, tarbiya olganmiz. Demak, xalq ogʻzaki ijodi oʻquvchilar tarbiyasida oʻrni beqiyosdir. U eng taʼsirchan vosita boʻlib, u orqali oʻquvchilar milliy madaniyatimizning ildizlarini chuqur his etadilar. Zamonaviy taʼlim jarayonida ulardan foydalanish oʻquvchilarda oʻzligimizni anglashga, milliy qadriyatlarni hurmat qilishga, urf-odatlarini qadrlashga va shu orqali Vatanga munosib farzand boʻlib ulgʻayishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekimbetova A. “Xalq pedagogikasida yoshlarga aqliy tarbiya berish anʼanalari” 2018.
2. Madayev O. “Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi”- 2010.
3. Mirziyoyev Sh.M. Maʼnaviyatli jamiyat - taraqqiyot poydevori.-T. :Maʼnaviyat, 2022
4. Mutalipova M.J. “Xalq pedagogikasi” 2015.
5. Toʻrayev S. “Folklorshunoslik: udumlar, qadriyatlar, marosimlar”, Mehnat, 2005.
6. Yuldosheva S. “Xalq urf-odatlarini va anʼanalari” 2003.